

ONA TILI DARSLARIDA SO`ZNING MORFEMIK TARKIBINI O`RGANISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH AHAMIYATI VA XUSUSIYATI

Tursunova Saida Baxtiyor qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Instituti magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili darslarida morfemik so`zlarni o`rganishda o`quvchilarning qiziqishi va bilishga bo`lgan ehtiyojini hisobga olgan holda darslarni induktiv,deduktiv,analiz-sintez metodlari bilan tashkil qilishda qo`llaniladigan metod va texnologiyalar.

Kalit so`zlar: analiz-sintez, induktiv, deduktiv, aqliy hujum, sinkveyn, yumaloqlangan qor, zigzag usuli, muammoli ta`lim, o`yin texnologiyalari.

Ona tilini o`rganish natijasida o`quvchilarda o`z fikrini grammatick to`g`ri uslubiy aniq ifodalay olish va imloviy to`gri yoza olishni o`rganadi.Boshqa fanlar kabi ona tilining ham predmeti bor. Ona tili o`rganish predmeti ta`lim berish sharoitida ona tili bilim va malakasini egallash ya`ni nutq,ovoz,grammatika va boshqalarni bilish jarayoni hisoblanadi. Ona tilini o`qitishda o`quvchi bilan o`quvchining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish shakllari ,metodlari va usullari ta`lim tizimining takomillashuvi bilan bog`liq holda rivojlanib ,yangilanib bormoqda. XX asrning oxirgi yillariga qadar o`qitishning o`qitishning metodlari sifatida tushuntirish, bayon etish metodi, suhbat metodi, analiz-sintez metodlari ona tili adrslarini tashkil etishda qo`llanilib kelindi.Hozirgi kunga kelib darslarni interfaol metodlardan foydalanib o`tish talab qilinmoqda. Bu metodlar bolani yoshiga va o`tilayotgan mavzuga mos tushushi muhim hisoblanib ayniqsa ona tili mavzularini bolaga yanada qiziqarli va coson qilib tushuntirish berishga mo`ljallanadi.

So`zning leksik ma`nosini aniqlash maqsadida uni morfemalarga ajratish til haqidagi fanda o`zining nazariy asosiga ega . Morfema – so`zning eng kichik bo`linmaydigan ma`noli qismi .Ona tili dasturiga muvofiq so`zning morfemik tarkibi 3-sinfda ham va yuqori sinflarda so`z turkumlarini o`rganish bilan bog`liq holda so`ning tarkibi haqidagi bilimlarni takomillashtirish ko`zda tutiladi.

O`quvchilar so`zning morfemik tarkibin va so`z yasalishini o`raganiahlariga qarab aso`zni morfemalarga ajratishdan ongli foydalana boshlaydilar . Ular yasama so`zning leksik ma`nosini so`zlarning semantik o`xshashligiga qarab bilib oladilar .Mavzuni o`rganish jarayoni uch bosqichda olib boriladi .

Birinchi bosqich : so`z yasalishini o`rganishga tayyorgarlik bosqichi . Bu bosqichning vazifasi - o`quvchilarni xar hil so`zlarning ma`no tuzilishiga ko`ra bog`lanishini tushunishga tayyorlash .Bunda vazifaning qo`yilishiga qarab , so`zning

ma`no va tuzilish jihatdan bog`lanishini tushunish ,o`zining lingvistik mohiyatiga ko`ra , bir xil o`zakli so`zlarni va so`z yasalishini o`zlashtirishga asos bo`ladi .

Ikkinch bosqich : bir xil o`zakli so`zlarning xususiyatlari va barcha morfemalarning mohiyati bilan tanishtirish Bu bosqichning asosiy o`quv vazifasi – so`zlarning ma`noli qismlari sifatida o`zak ,so`z yasovchi va shakl yasovchi qo`shimchalar bilan tanishtirish ,``o`zakdosh so`zlar`` tushunchasini shakllantirish ,bir xil o`zakli so`zlarda o`zakning bir xil yozilishini kuzatish .

Uchinchi bosqich : o`zak , so`z yasovchi va shakl yasovchi qo`shimchalarning xususiyatlari hamda tildagi ahamiyatini o`rganish metodikasi.Bu bosqichning o`quv vazifasiga ``o`zak``, ``so`z yasochvi qo`shimcha``, ``shakl yasovchi qo`shimcha`` tusunchalarini shakllantirish ,so`zning leksik ma`nosini bilan morfemik tarkibi o`rtasidagi bog`lanish haqidagi tasavvurlarni boyitish , o`zakda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshli so`zlarni to`g`ri yozish malakasini shakllantirish ,nutqda so`z yasovchi qo`shimchalari bor so`zlarni ongli qo`llay olish ko`nikmasini o`stirish kiradi.

Ta`lim o`qituvchi va o`quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo`lib , shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti ,uning ma`lumoti va tarbiyasi amalga oshadi. Darslarda o`qituvchi o`z bilim ,ko`nikmalarini va malakasini mashg`ulotlar davomida o`quvchilarga yetqazadi, o`quvchilar esa uni o`zlashtirib boorish jarayonida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo`ladi . Hozirgi kunda ta`limm jarayonida interfaol metodlar va axborat texnologiyalarini o`quv jarayonida qo`llashga bo`lgan qiziqish va talab ortib bormoqda . Buning asosiy sabablaridan biri shu vaqtgacha an`anviy ta`limda o`quvchilar faqat tayyor bilimni egallahga o`rgatilgan bo`lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o`zları qidirib toppish , mustaqil o`rganish va fikrlash ,tahlil qilish hatto yakuniy xulosalarni o`zları keltirib chiqarishni ham o`rgatadi.O`qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi ,shakllanishi va rivojlanishiga sharoit yaratadi shu bilan birga boshqaruvchilik ,yo`naltiruvchilik funksiyasini bajaradi .Bugungi kunda ta`limda “Aqliy hujum” , “Fikrlar hujumi” , “Tarmoqlar” metodi , “Sinkveyn” “ BBB” , “Beshinchisi ortiqcha” , “6x6x6” , “ Zigzag ” , “ Kichik guruhlarda ishlash ” , “Yumaloqlangan qor ” kabi zamonaviy metod va texnologiyalar qo`llanmoqda .Dars mashg`ulotlarida o`yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobjiy natija beradi .O`yin –topshiriqning qaysi birini qo`llash dars turiga ,sinf o`quvchilarinig bu topshiriqlarni bajarishga o`rganganlik darajasi, ularning bilim saviyasi , mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlariga ham mosligiga qarab tanlanadi .

Bugungi kunda o`qituvchidan ilg`or pedagogik va yangi axborot texnologiyalaridan o`quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda va o`qituvchining pedagogik mahoratini to`laqonli darsga bera olishi va o`quvchi bilan individual , guruh shaklda shug`ullanishi uchun sharoit yaratilishi zarur.Boshlang`ich sinflarda

o`tiladigan ona tili darslari o`z mohiyati ,maqsad va vazifalariga ko`ra ta`lim tizimida alohida o`rin tutadi .Neagki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy –ta`limiy tarbiya asoslari yotadi. Shuning uchun ham boshlang`ich ta`lim darslariga o`quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e`tibor berish lozim .Interfaol metod-ta`lim jarayonida o`qituvchi va o`quvchilar o`rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o`zaro harakati ta`siri ostida bilimlarni o`zlashtirishni kafolatlash ,shaxsiy sifatlarnirivojlanishiga xizmat qiladi . Ushbu usullarni qo`llash dars sifati va samadorligini oshirishga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki,o`quvchilarga morfemikani o`rgatish jarayonida interfaol metodlar va turli o`yinlardan foydalanish dars samadorligini oshiradi va darsdan ko`zlangan maqsadga erishishga yordam beradi .Dars jarayonida innovatsion texnologiyalar ,metodlar va o`yinlarni qo`llay olish ko`nikmasini o`qituvchilarda shakllantirib borish va yanada malakasini oshirish, sinf xonalarini so`nggi texnologiyalar bilan jihozlash ,ularni moddiy –texnik tomonidan ta`minlash hozirgi zamon talabiga aylanib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

- 1.Abdullayeva H.A ,Bikbayeva N.U va boshqalar Boshlang`ich ta`lim konsepsiysi . Boshlang`ich ta`lim.1998.6-son,12-24 betlar.
- 2.Bo`ronova SH .Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish.Uzlusiz ta`lim .2004.3-son,34-38 betlar.
- 3.Qosimova K. va boshqalar .Ona tili o`qitish metodikasi .Toshkent .2009 –yil 65-66- betlar
4. Ataboyev Isroiljon Mirza o'g'li. (2022). RESPONDING TO A SPEECH REPROACH. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 10, 161–167. Retrieved from <https://journalzone.org/index.php/bjgesd/article/view/157>
5. Ataboyev, I. (2022). isroilataboyev2@ gmail. com TANA-DASHNOM KONSEPTINING LINGVISTIK CHEGARALARI TO'G'RISIDA: TANA-DASHNOM KONSEPTINING LINGVISTIK CHEGARALARI TO'G'RISIDA. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(4).
6. Ataboyev, I. (2022). isroilataboyev2@ gmail. com REYTINGLAR TADQIQOT SIFATINI AKS ETTIRADIMI? REYTINGLAR TADQIQOT SIFATINI AKS ETTIRADIMI?. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(4).
7. Turgunova, F. (2022). fazilatturgunova05@ gmail. com TILDA KOMPRESSIYA HODISASI: TILDA KOMPRESSIYA HODISASI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(4).
8. Turgunova, F. (2022). fazilatturgunova05@ gmail. com YANGILIK SARLAVHALARINI TARJIMA QILISHNING LEKSIK XUSUSIYATLARI: YANGILIK SARLAVHALARINI TARJIMA QILISHNING LEKSIK XUSUSIYATLARI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(4).

9. Turgunova, F. (2022). fazilatturgunova05@ gmail. com YANGILIK SARLAVHALARDAGI QISQARTMALAR VA ULARNING TARJIMA XUSUSIYATLARI: YANGILIK SARLAVHALARDAGI QISQARTMALAR VA ULARNING TARJIMA XUSUSIYATLARI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(4).
10. Ataboyev, I. (2022). *TANBEHNING LINGVISTIK CHEGARALARI HAQIDA VA TIL HODISASI SIFATIDA TANBEHGA LUG'AT TAMONDAN YONDASHUV*. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ международный научный электронный журнал.
11. Turgunova, F. (2022). fazilatturgunova05@ gmail. com MATNNI SIQISHNI O'RGANISH UCHUN NAZARIY SHARTLAR. MATNNI SIQISH: MATNNI SIQISHNI O'RGANISH UCHUN NAZARIY SHARTLAR. MATNNI SIQISH. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(4).